



O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI AXLOQIY QADRIYATLAR MAZMUNINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Turaboyeva Sitora Zokir qizi¹, Tashpulatova Dilnoza Xolmirza qizi²

¹Toshkent Tibbiyot Akademiyasi ingliz tili o'qituvchisi, tsitora@internet.ru

²Toshkent Tibbiyot Akademiyasi ingliz tili o'qituvchisi,
dili_xalmirzayevna@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5895049>

Annotatsiya: Til birliklari orasida aynan axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqlar o'rtasidagi mental farqlarni yaqqol ko'rsatib bera oladi.

Kalit so'zlar: Lingvakulturologiya, birlik, kommunikativ munosabat, „do'st“ va „begona“ konsepsiyalari

Jahon tilshunosligida turli soha vakillarining o'zaro kommunikativ munosabatga kirishishida mavjud o'ziga xosliklar keng miqyosda tadqiq etilmoqda. Keyingi yillarda bu bilan bog'liq muammolar tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda, chunki o'zaro muloqotning samarali bo'lishidan hamma birdek manfaatdordir. Bu hol hozirgi paytda kuzatilayotgan rivojlanishning intensivlashuvi va geosiyosiy va iqtisodiy sohalarning to'la-to'kis o'zgarib borishi global integratsiya va butun jahon hamjamiyatining kasbiy muloqot jarayoniga jalb etilishini taqozo etmoqda.

Dunyo tilshunosligida nutq egasi tinglovchi yoki o'quvchiga o'z fikrini aniq, lo'nda va tushunarli qilib yetkizishi uchun tilning ta'sirchan vositalaridan qay tarzda foydalanishi toboro ko'proq e'tibor jalb qilmoqda. Ayniqsa, jamoa bilan ishlaydigan, xalq bilan muloqotga tez-tez kirishadigan siyosiy faollar, jumladan, deputatlar, blogerlar, jurnalistlarnutq egasi sifatida ommaviy muloqot uchun qanday lisoniy vositalardan foydalanish samara berishini, nutqdan ko'zlangan maqsadga eltuvchi, hal qiluvchi tayanch birliklar qaysi ekanligini bilishi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada paremiyalar – xalq donishmandligi hisoblangan maqol, ibora va aforizmlar asosiy lisoniy vosita hisoblanadi. Til birliklari orasida aynan axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqlar o'rtasidagi mental farqlarni yaqqol ko'rsatib bera oladi. Shu nuqtai nazardan „do'st“ va „begona“ larning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini o'zbek va ingliz tillari misolida qiyosiy o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy ongni modellashtirish va ta'mirlashning ajralmas tarkibiy qismi sifatida bilimlarni ommalashtirish – o'z atrofidagi haqiqatni idrok etish va bilishning psixolingvistik va kognitiv mexanizmlari majmuasini qamrab olgan yaxlit jarayondir. Bu jarayon






inson faoliyatining barcha tegishli sohalarini, shu jumladan, ommaviy axborot sohasini ham qamrab oladi.

O'zbek tilshunosligida matn tahlili bilan bog'liq tadqiqotlarni ko'plab uchratish mumkin, ular orasida publitsistik, badiiy matnlarning lingvistik va grammatik tadqiqiga asosiy e'tibor qaratiladi, biroq axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarideyarli o'rganilmagan. Ish o'zbek va ingliz tillarida axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil asosida aniqlashga yo'nalganligi nuqtai nazardan ham dolzarb hisoblanadi.

Axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini tillar orasidatadqiq qilish "do'st" va "begona" konseptik birliklarning o'rnini aniqlash va aktuallashtirish borasida olib borililayotgan mazkur tadqiqot ishning dolzarbligi, tadqiqotning ob'ekti va predmetini belgilashga ham asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4997-son «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida»gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son«O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasito'g'risida»gi, 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son «Fanlarakademiya faoliyati,ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019yil 12 dekabrda 984-son«Davlattilini rivojlan-tirishdepartamenti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori hamda mazkurfaoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiyhujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsion ish muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish"ning ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan. Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligi dakognitiv-pragmatik tahlilga, ayniqsa, iqtisodiy (tijoriy) diskursga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, kasbiy-sohaviy muloqotda foydali bo'lgan paremiyalarga doir tadqiqotlar ham mavjud. Ayniqsa, paremiyalarni kognitiv-diskursiv nuqtai nazardan o'rganishida rus olimlaridan





N.D.Arutyunova, I.V.Gorban, Ye.SKubryakova, A.Konstantinova kabilarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash mumkin.

Kognitivtilshunoslik muammolario'zbekistonlikolimlar A.A.Abduazizov, D.U.Ashurova, A.E.Mamatov, M.I.Rasulova, N.Mahmudov, R.X. Shirinova, O'.K.Yusupov, J.A.Yoqubov, I.M.Tuxtasinov, M.V.Ergasheva, ¹ va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida muayyan darajada tadqiq etilgan.Paremiyaning bir turi bo'lgan frazeologiyatilshunoslikning mustaqil tarmog'isifatida XXning birinchi yarmidarustilshunosligidapaydobo'lgan. Bu borada, ayniqsa, Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, Sh.Almamatova va boshqa tilshunoslarning xizmatlari katta.

Biroq axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarideyarli o'rganilmagan, qolaversa, konsept darajasida maxsus ilmiy tadqiq etilmagan, axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklar o'zbek va ingliz tiliga doir matnlar, xususan, "do'st" va "begona" konseptlari doirasida pragmatik lingvokulturologik nuqtai nazardan maxsus tekshirilmagan edi. Mazkur tadqiqotda o'zbek va ingliz tiliga doir axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarinikonsept darajasida tadqiq etiladi. Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Ushbu tadqiqot 3 tadqiqot rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotining maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini "do'st" va "begona" konseptlari misolida tadqiq etadi. Uni amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo qiladi: - jahon va o'zbek tilshunosligidagi mavzuga aloqador ilmiy adabiyotlarni o'rganish va ularga munosabat bildirish;
- tadqiqotning asosiy tadqiqot yo'nalishlarini tahlil qilish;

^{1 1} . Candlin, C.N. Introduction / Research and Practice in Professional Discourse / C.N. Candlin; ed. by C. Candlin. - Hong Kong: City University of Hong Kong Press, 2002. - P. 1-39.

Bargiela, F. Business Discourse across 'cultures': data selection, collection and analysis / F. Bargiela. - Warwick, 2010.; Bargiela-Chiappini, F. The Handbook of Business Discourse / F. Bargiela-Chiappini. - Edinburgh University Press, 2009. - 520 p; Bargiela-Chiappini, F., Nickerson, C. Business discourse: Old debates, new horizons / F. Bargiela-Chiappini, C. Nickerson // International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. - 2002. - Vol. 40, Issue 4. - P. 273-286. Honeck R. P. A Proverb in Mind. The Cognitive Science of Proverbial Wit and Wisdom. Mahwah, New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates, 1997.

Arutyunova N.D. Diskurs // Lingvisticheskiiyensiklopedicheskiiy slovar / Gl. red. Yarseva V.N. - M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1990. - S. 136-137. 2. Gorban I.V. Rol paremiy v rechevix aktax (na materiale yazika russkoy xudojestvennoy literaturi). Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. Saratov 2010. - 26 s. 3. Kubryakova, Ye.S. O tekste i kriteriyax yego opredeleniya // Tekst. Struktura i semantika. T. 1. - M., 2001. - S. 72-81. 4.

Ergasheva, M. V. Olamning lisoniy manzarasi va semantik maydonlarga bo'linishi / M. V. Ergasheva. — Tekst : // Molodoy ucheniy. — 2016. — № 3.1 (107.1). — S. 59-62.





- o'zbek va ingliz tillarida "do'st" va "begona" konseptlari misolida axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini tavsiflash;

- o'zbek va ingliz tiliga doir axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning ("do'st" va "begona" konseptlari misolida)lingvokulturologik, umumlisoniy xususiyatlarini aniqlash;

- o'zbek va ingliz tiliga doir axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash va tavsiflash;

- o'zbek va ingliz tiliga doir axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini funksional xususiyatlarini tizimlashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti o'zbek va ingliz tillaridagi axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning "do'st" va "begona" konseptlari.

Tadqiqotning predmeti o'zbek va ingliz tillaridagi axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini "do'st" va "begona" konseptlari misolida qiyosiy o'rganishdir.

Tadqiqot usullari qiyosiy tahlil, kognitiv-diskursiv va pragmatik-kommunikativ tahlil usullari, shuningdek, qo'yilgan vazifalarni hal etish va dissertatsiya ishida ko'rsatilgan maqsadga erishish uchun funksional, kontekstual va komponentli tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: o'zbek va ingliz tillaridagi axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil orqali ochib beriladi;

o'zbek va ingliz tillaridagi axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini "do'st" va "begona" konseptlari misolida qiyosiy kognitiv-diskursiv aspektida tahlil qilinadi va o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil orqali aniqlanadi;

o'zbek va ingliz tillaridagi axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning kognitiv-diskursiv imkoniyatlari, turli diskurslarda zamonaviy hikmatlar ifodasi, nutqda qo'llashning o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganiladi; o'zbek va ingliz tillaridagi axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini "do'st" va "begona" konseptlari kognitiv-diskursiv mohiyati, mazmun-mundarajasida konsept darajasida qiyosiy tahlil qilinadi.

Ishning amaliy ahamiyati uning natijalarini diskursologiya, leksikologiya, leksikografiya, kognitiv tilshunoslik va nutq nazariyasi bo'yicha nazariy kurslarda qo'llash, shuningdek, umumiy nutq nazariyasi bilan bog'liq ko'plab muammolarni ishlab chiqish amaliyotida, nominativ faoliyatning kognitiv jihatlari, shuningdek, darslik, uslubiy ko'rsatmalar tayyorlashda foydalanish mumkin. Ishning natijalari





va xulosalari amaliy tilshunoslik doirasida nutq madaniyati, notiqlik kabi interaktiv til kurslarini yaratishda ham keng qo'llanilishi mumkin.

Ushbu ishning nazariy ahamiyati shundaki, uning asosiy natijalari va g'oyalari ommabop nutqlardagi paremiologik birliklarning kognitiv-diskursiv xususiyatlarini tahlil qilish uchun generator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur sohada dastlabki tadqiqotlarini boshlagan izlanuvchilarga o'zbek tilidagi paremiologik birliklarning asosiy vazifalarini oson aniqlash va tavsiflashga, sohaviy muloqot mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari mahalliy va xorijiy tilshunoslarning g'oya va fikrlari tahlilining umumiy nazariyasi, siyosiy nutq va sohaviy muloqot, lingvokulturologiya va dunyoning lisoniy manzarasini o'rganish, kognitiv tilshunoslik, siyosiy va ommabop nutqlar, paremiologiya va frazeologiya sohasidagi ishlarni o'z ichiga oladi.

